

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Matchanov B

Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim fakulteti" uslubchisi

**Annotatsiya.** Bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasi hisoblanadi. Bizga ma'lumki tarbiya qancha erta boshlansa samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Maqolada aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Ma'naviy tarbiya, xalq pedagogikasi, zamonaviy pedagogika, egosentirizm, tizimli shakllantirish, uzviylik, yahlitlik, komplekslilik  
Jahonda globallashush sharoiti kechayotgan bir davrda ma'naviy tarbiya masalasi har-qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiyani amalga oshirishni uzliksizligi va tizimligini ta'minlash muhimdir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsning ma'naviy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy institut bu oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti ekanligi ta'kidlanib, u tarbiyalanuvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash, (pedagogical support) ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga avangard - xorijiy amaliyotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda tarbiyachi pedagoglarning xalq pedagogikasi va zamonaviy pedagogikani ilg'or namunalaridan foydalanib pedagogik jarayonlarni tashkil etishni ko'rsatadi.

Bizga ma'lumki tarbiya qancha erta boshlansa samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Shu maqsadda keying yillarda mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limga qamrab olish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib tizim tubdan modernizatsiya qilindi, natijada qamrov darajasi 70 foizga chiqarildi.

Bunday sharoitda tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirish dolzarb masaladir.



Ma'naviy – axloqiy tarbiya bu bolaning shaxsini jamiyatning maqsadlari va g'oyalariga mos ravishda rivojlanishi bilan pedagogik ta'sir qilish usuli hisoblanadi.<sup>1</sup>

S.A.Efimenkova nuqtai nazaridan, ma'naviy-axloqiy tarbiya deganda shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini uni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash uchun maqsadli, tizimli shakllantirish jarayoni tushuniladi. Bu bolalarni insoniyat va ma'lum bir jamiyatning axloqiy qadriyatlari bilan tanishtirish jarayonidir.<sup>2</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani amalga oshir ekanmiz asosiy e'tiborimizni ta'lim oluvchi ma'naviy fazilatlarini shakllantirish qaratishimiz darkor. Biz nazarda tutayotgan inson yoshi (5-6-yosh) o'ta sezgir psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlarga egaligi bilan izohlanadi. Shuning uchun tarbiyachilar eng yaxshi tarbiya usullarini qo'llashi bolalarning psixologik rivojlanishining mohiyatini tushunishlari kerak.

Ma'lumki, maktabgacha yosh davri ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan sezuvchanlikning ortishi bilan tavsiflanadi. Bola bu dunyoga kelib, hamma narsani: muloqot yo'llari, xatti-harakatlari, munosabatlarini o'ziga singdiradi, shu maqsadda o'z kuzatishlari, empirik xulosalari, kattalarga taqlid qilishlaridan foydalanadi.<sup>3</sup>

Demak inson ma'naviyati odob va axloqning taraqqiy etishi jarayonida bo'y ko'rsatadi. Shuningdek Ma'naviy sifat ikkinchi tononni faol ta'siri jarayonida shakllanadi. Demoqchimizki inson ma'naviyati odob va axloqqa nisbatan murakkab jarayon bo'lib u yillar davomida shakllanadi. Insonga ayrim odob-axloq korinishlari insting ko'rinishida o'tishi mumkin. Ma'naviyat esa to'g'ri tashkil etilgan tarbiya jarayonlarida shakllantiriladi. Katta maktabgacha yoshidagi bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishini inobatga olib, shuni ta'kidlash lozimki uning individula rivojlanishi u dunyoga kelgan davrdan boshlanadi. Bolalarning o'sib kamol topishi jarayonida ota-onalar va tarbiyachilar yordamida jamiyatda mavjud ma'naviy mezonlar bilan tanishib boradi.

Ma'naviy tarbiyaning asosi amaliy harakatlarda namoyon bo'ladi. MTTdagi ta'lim-tarbiya jarayonlari tarbiylanuvchilarni fikrlashga o'zi va boshqalar harakatlarini axloqiy oqibatlarini boshqalarga qanday ta'sir korsarishini o'rganishga qaratiladi. Mashg'ulotlar bolaalrga muommolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish va ularga

<sup>1</sup> A.Qodirov, M.Quronov "Baxtli bola ma'naviyati" T.: "Sano-standart" Toshkent-2018. 43.b

<sup>2</sup> Золотарева Е.К. Педагогическая система духовно-нравственного развития и развития личности. Пермь: ПГПИ, 1993: 64 – 87.

<sup>3</sup> С.А.Козлов, Т.А.Куликова «Дошкольная педагогика» Москва. «Академия» 2001. 62 ст



axloqiy vazitlarda tanlov qabul qilish, o'z tanlovi oqibatlari haqida o'ylashga imkon berishi kerak.

Sh.G. Aliyeva maktabgacha yoshda bolaning shaxsiyati, uning dunyoqarashi, yaxshilik va yomonlikni tushunishi, boshqalarning harakatlariga va o'z xatti-harakatlariga munosabati asoslari yaratilishini takidlaydi.<sup>4</sup>

Umumu olganda bolada ma'naviy fazilatlarni shakllantirish ko'plab vositalar, usullar, texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Bu esa tarbiyachi pedagogdan yuksak mahorat talab etadi.

Tarbiyachi katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola ma'naviy fazilatlarini shakllantirar ekan avvola ma'naviy fazilatlarni ro'yobga chiqaruvchi muhit tashkil etishi, bola ma'naviy sifatlarini ko'rsata oladigan ta'lim texnologiyalarini tanlay bilishi va didaktik vositalarnan unumli foydalanishi darkor.

Maktabgacha katta yoshdagi bolaning ma'naviy fazilatlatibi ilmiy pedagogik asoslari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

pedagogikaning zamonaviy ilg'or yutuqlari;

ma'naviy fazilatlarni rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish;

modellastirish jarayonini samarali qo'llash;

interfaol ta'lim texnologiyalarini amalga qo'llash;

ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarimiz namunalaridan keng foydalanish;

uzviylik, yahlitlik, komplekslilik, bola shaxsiy hususiyatlarini inobatga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy tarbiyani olib borishning yana bir muhim tarafi shundaki bu yerdagi muhit bitta bolaning emas butun bolalar jamoasiga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borayotgan bolalarimizning asosiy vaqti shu yerda o'tadi, bu esa aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ma'naviy fazilatlarini shakllantirish uchun keng imkon beradi. Ma'naviy fazilatlarga ega bo'lish bolalarga yahshi va yomonni farqlashga yordam berib, ularga hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Ma'naviy fazilatlarni egallagan bolalar turli hayotiy vaziyatlarda kuchli bo'lishga undaydi, natijada ular o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib o'z maqsadldriga erishadilar.

Katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda o'z egosentirizimini yengib o'tish boshlanadi. Ma'naviy sifatlarini boshqa odamlar nuqtayi nazardan ko'rish qobiliyati

<sup>4</sup> Sh.G. Aliyeva Azerbaijan State Pedagogical University assistant professor of the chair of pedagogy and methods of the pre-school education Milena.555@mail.ru



rivojlanadi. Shuningdek ushbi yoshdagi bolalar axloqni to'g'ri yoki noto'g'riligini oqibatlariga emas, balki niyatga bog'liq deb biladilar.

Shunday qilib ilmiy adabiyotlarda ma'naviyat tushunchalarining mohiyati maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy tarbiyalashning maqsad va vazifalari ushbu yoshdagi bolalarning jamiyatda qabul qilingan axloq-odob qoidalari doirasida hatakatlanish, zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iboratligi belgilangan. Demak katta maktabgacha yoshdagi bola ma'naviy fazilatlarini shakllantirar ekanmiz, avvalo uning hayotda amaliy harakatga aylanishiga e'tibor qaratishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. A.Qodirov, M.Quronov "Baxtli bola ma'naviyati" T.: "Sano-standart" Toshkent-2018. 43.b
2. Золотарева Е.К. Педагогическая система духовно-нравственного развития и развития личности. Пермь: ПГПИ, 1993: 64 – 87.
3. С.А.Козлов, Т.А.Куликова «Дошкольная педагогика» Москва. «Академия» 2001. 62 ст.
4. Sh.G. Aliyeva Azerbaijan State Pedagogical University assistant professor of the chair of pedagogy and methods of the pre-school education Milena.555@mail.ru

